

BIZNES VA TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHNING DOLZARB MUAMMOLARI

Mustafoyeva Shahnoza Namozovna
Uchquduq tuman kasb-hunar maktabi
Biznes asoslari fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada raqamli iqtisodiyot sharoitida biznes va tadbirkorlikni rivojlantirishning dolzarb masalalari, globallashtirish sharoitida davlatlar raqobatbardoshligini aniqlashda iqtisodiyotning raqamlashtirilganligi darajasi haqida atroflicha fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: raqamli iqtisodiyot, biznes, tadbirkorlik, globallashtirish sharoiti, raqamli tadbirkorlik.

Kirish:

Raqamli iqtisodiyot - bu siyosiy- iqtisodiy, ilmiy-ijtimoiy, madaniy va ma'rifiy munosabatlardagi aloqalarni raqamli texnologiyalarni qo'llash yordamida amalga oshiruvchi yangi tizim bo'lib, raqamli iqtisodiyot sharoitida "raqamli tadbirkorlik" alohida ahamiyatga egadir. Hozirgi tadbirkorlik tibbiyot sohasida ham rivojlanib bormoqda.

Raqamli iqtisodiyot raqamli texnologiyalarga asoslangan, elektron biznes, elektron tijorat bilan bog'langan, raqamli tovar va xizmatlar ishlab chiqarayotgan va taqdim etilayotgan iqtisodiy faoliyat bo'lib, bunda iqtisodiy xizmat va tovarlar uchun hisob-kitoblar elektron pul yordamida amalga oshiriladi. Raqamli iqtisodiyot konsepsiyasi atomdan bitga, ya'ni kimyoviy eng kichik zarradan elektron birlikka o'tishga asoslanadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya:

Bugungi vaqtda dunyodagi takomillashgan mamlakatlarda aholi daromadlarining o'sishi birinchi navbatda tadbirkorlikda innovatsion jarayonlarning to'g'ri tashkil qilishi, shuningdek "raqamli tadbirkorlikni" doimiy ravishda rivojlanib borilayotgani bilan bog'liqdir. Raqamli iqtisodiyotni takomillashtirish sharoitida Respublikamiz oldida turgan muhim faoliyatlardan biri jahon bozorida raqobatbardosh bo'lgan mahsulotlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatishni keng yo'lga qo'yishdir.

Binobarin, jahon mamlakatlari aholisi iqtisodiyot tarmoqlarining o'zgarishi, bu jarayonning raqamlashuvi, barcha sohalarga sun'iy intellektning joriy etilishi bilan bog'liq asosiy davrni boshdan kechirmoqdalar. 2022- yilga kelib dunyo YaIMning qariyb chorak qismi raqamli sektorga to'g'ri kelishi prognoz qilinayotgan bir sharoitda yangi iqtisodiyotni shakllantirish zarurati yanada kuchayadi.

Raqamli iqtisodiyotga bo‘lgan qiziqish jamiyat va iqtisodiyotda sodir bo‘layotgan jiddiy o‘zgarishlar sababali sezilarli darajada o‘ydi. Zamonaviy texnologiyalar va platformalar mijozlar, hamkorlar va davlat tashkilotlari bilan shaxsiy muloqotni minimallashtirish hisobiga korxonalar va jismoniy shaxslarga xarajatlarni qisqartirishga yordam berdi, hamda o‘zaro muloqotni yanada tez va oson yo‘lga qo‘yishga imkoniyat yaratdi.

Natijalar:

“Raqamli iqtisodiyot alohida faoliyat turini emas, balki ishbilarmonlik, sanoat ob‘ektlari, xizmatlarda axborot texnologiyalaridan faol foydalanishni anglatadi. Agar oddiy iqtisodiyotda moddiy buyumlar muhim resurs sanalsa, raqamli iqtisodiyotda bu qayta ishlanadigan, shuningdek uzatiladigan axborot, ma’lumotlar bo‘ladi”. Raqamli iqtisodiyot yirik sanoat ob‘ektlari ish samaradorligini oshirish, ishlab chiqarishni o‘stirish, faoliyat shaffofligini ta’minlash, mahsulot tannarxini kamaytirish imkonini yaratadi. Davlatimizda mazkur sohani keng takomillashtirish korrupsiya illatiga barham beradi.

Raqamli ma’lumotlar qimmatbaho iqtisodiy resurs hisoblansa-da, ular raqamli tafakkurga aylanganidagina foyda keltiradi. Raqamli iqtisodiyotning kirib kelishi bilan raqamli platformalarni yaratish va tez sur‘atlarda o‘sib borayotgan raqamli ma’lumotlarni monetizatsiya qilish masalalari paydo bo‘lmoqda. Bunda yangi qiymat yarata olish yo‘llarini, mazkur jarayonlardagi to‘siqlarni bartaraf qilish vositalarini aniqlash muhimdir. Bu qiymatni yaratish va tarqatish salohiyatini, qiymatni yangilash, boshqarish hamda qiymatni qo‘lga kiritish shakllarini tushunish imkonini yaratadi.

Muhokama:

Globalashuv sharoitida mamlakatlar raqobatbardoshligini aniqlashda iqtisodiyotning raqamlashtirilganligi darajasi asosiy ahamiyat kasb etadi. Iqtisodiyotning qaysi bir tarmog‘i yoki sohasiga nazar tashlamaylik, barchasida raqamli texnologiyalarning o‘rnini ko‘ramiz. Mamlakat bank tizimidagi xizmatlardan tortib, davlat xizmatlari darajasida ham innovatsion raqamli texnologiyalarning ulushi ortib bormoqda. Hozirgi kunda sanoat ishlab chiqarishini takomillashtirishni innovatsion texnologiyalar yordamida ta’minlash dolzarb masalaga aylanib bormoqda. Jahon tajribasining ko‘rsatishicha, sanoat korxonalarini rivojlantirish bo‘yicha innovatsion strategiyalarni shakllantirish va amalga oshirish ularning ishlab chiqarish faoliyatini ichki va tashqi bozor talablariga muvofiqlashtirishning muhim omili bo‘lib xizmat qiladi.

Xulosa:

Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki, asosiy vazifalardan biri tadbirkorlar orasida sog‘lom raqobatni ta’minlash orqali, narxlarni pasaytirish va jahon bozorida raqobatbardosh, eksportbop sifatli mahsulotlarni ishlab chiqarishni kengaytirishdir. Xalqaro tajribani o‘rgangan tarzda monopoliya sohalariga xususiy sektor uchun yanada

keng yoʻl ochish, “raqamli tadbirkorlikni” shakllantirish va shu yordamida raqobat sharoitini takomilalshtirish darkor.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Gulyamov S.S., Ayupov R.H., Abdullaev O.M., Baltabaeva G.R. Raqamli iqtisodiyotda blokcheyn texnologiyalar. - T.: TMI, “Iqtisod-Moliya”, 2019.
2. Raqamli iqtisodiyotni shakllantirishdagi zamonaviy trendlar: tajriba, muammo va istiqbollari. // Ilmiy-amaliy anjuman ma’ruza tezislari to’plami. 2020.
3. Tolametova Z.A. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash jarayonida mehnat bozorini rivojlanish yoʻnalishlari. Toshkent. “Iqtisodiyot”. 2014.
4. Xaydarov B. X., Saitov S. A. Raqamli iqtisodiyot tushunchasi, afzalliklari amaliy ahamiyati va xorijiy tajriba. 2022.